

CAUSES OF SPEECH DISORDERS IN CHILDREN AND MEASURES TO PREVENT THEM.

Ilmiy rahbar: **Salamova F –**

NDPI o'qituvchisi

Rimbayeva Ozoda –

N DPI talabasi 1-kurs

Abstract: Dunyo miqyosida aholi salomatligini yaxshilash va tug'ilajak bolalarni sog'lom qilib dunyoga keltirish, ularda turli kasalliklarning oldini olish va davolashga katta e'tibor qaratilmoqda. Afsuski hozirgi kunda ayrim og'ir kasalliklar kichik yoshli bolalarda ham ko'p uchrayotgani achinarli holar. Bunday kasalliklarga Serebral falajlik (mushak tonusidagi patalogiyalar, giperkinez, nutqdagi kamchiliklar, harakat koordinatsiyasi buzilishi, bolaning matorik va ruhiy jihatdan rivojlanishdan orqada qolishi), gidrosefaliya (bosh miyada suv to'planishi), alaliya (nutqning yo'qolishi), autizm (tashqi olam bilan muloqot qilishni hohlamaslik) va shu kabi bishqa kasalliklarni keltirishimiz mumkin. Bolalarda uchraydigan kasalliklar qatorida nutq nuqsonlariga alohida to'xtalishimiz lozim. Chunki har bir inson nutq orqali atrof-olam bilan muloqot qiladi, axborot almashadi va o'z fikrlarini boshqalarga yetkazib beradi. Insonning aqliy tomonidan rivojlanishi bevosita nutq bilan bog'liq. Ya'ni biz eshitish orqali gapiramiz, gapirish davomida bizda fikrlash, fikrlash natijasida esa tafakkur rivojlanadi. Bunda ko'rinish turibdiki insonni boshqa mavjudotlardan yuksakroq pog'onaga olib chiqib turgan ham, unda rivojlangan eng yuksak xususiyat ham nutqdir. Xo'sh, nima uchun bolalarda nutq buzilishlari kelib chiqadi degan savolga javob berishga harakat qilib ko'raylik. Nutq buzilishlari bolaning ona qornida rivojlanish davrida onadagi turli infeksion kasalliklar, mexanik shikastlanishlar, turli irlsiy kasalliklar va bolaning nerv hujayralari notog'ri rivojlanishi yoki umuman rivojlanmay qolishi natijasida va boshqa ko'plab ta'sirlar oqibatida kelib chiqadi.

Kalit so'zlar: nutq, nutq buzilishlari, logoped

Bolalarda nutq buzilishlari faqatgina tug'ma bo'lmasdan orttirilgan bo'lishi ham mumkin. Misol tariqasida aytadigan bo'lsan, bolaning tug'ilganidan keyin go'daklik davrida tez-tez shamollashi uning nerv hujayralariga zarar yetkazishi, turli jarohatlar yoki bola ruhiyayiga kuchli ta'sir qiluvchi voqeа hodisalar bolada nutq buzilishlari kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bularдан tashqари, ба'зи hollarda ko'rishimiz mumkinki bola sog'lom bo'lib voyaga yetayotgan bo'lishiga qaramay unda nutq buzilishlari uchraydi. Ushbu holatda nutq buzilishining kelib chiqishiga oiladagi muhit sabab bo'ladi. Ya'ni bola endi gapirishni boshlagan davrda so'zlarni noto'g'ri talaffuz qiladi, kattalar esa uni erkalab va unga taqlid qilib so'zlarni qisqa yoki so'z talaffuzini buzib aytishadi. Natijada bola xotirasida ushbu so'zlar saqlanib qolib keyinchalik ham to'g'irlanmasdan nutq buzilishlari kelib chiqadi. Bolalarni ko'p erkalatishimiz yoki ko'p urshishimiz ham ularda nutq buzilishlari kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Bola nutqi rivojlanayotgan davrda uning talaffuziga e'tiborli bo'lishimiz lozim. Chunki yuqoridagi holatlarda bola erkalanib yoki qo'rquv natijasida so'zlarni to'g'ri talaffuz qilomasligi, ba'zan umuman gapiolmay qolishi, gapirishga qo'rqib qolishi, o'zining nutqini ahamiyaysiz qishidan xavfsirab kam gapirishi mumkin.

Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar psixikasi sog'lom bolalar psixikasidan farq qiladi. Chunki ular o'z nuqsonlaridan uyalishlari va odamlardan o'zlarini olib qochishlari mumkin. Buning natijasida ularda atrofdan ma'lumot qabul qilishda uzilishlar yuz berishi, aqliy va ruhiy rivojlanishda tengdoshlaridan orqada qolishning kuzatilishi, odamlar gavjum davralardan o'zini chetga tortishi va boshqa shunga o'xshash holatlar kuzatiladi. Natijada ular o'z imkoniyatlatidan to'liq foydalanolmayfi va qobilyatlatini ham ko'rsatolmaydi.

Nutq nuqsonlari logopediya fanida muayyan tilning me'yorlaridan chetga chiqishi deb ta'riflanadi. O.V. Pravdina o'zining "Logopediya" kitobida logopedik nutq nuqsonlarini quyidagicha xarakterlaydi:

- nutq nuqsoni o'z-o'zidan barham topmaydi, balki vaqt o'tgan sari yanada mustahkamlanib, zo'rayib boradi;
- nutq nuqsoni gapiruvchining yoshiga mos kelmaydi;
- nutqiy nuqsonlari bo'lgan kishilar logopedik yordamga muhtoj bo'ladi;

- og'ir nutq nuqsoni kishining nafaqat nutqiga,balki umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi; Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki nutq kamchiligi inson hayotiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham nutq nuqsonlari kelib chiqishining oldini olish, bolada nutq nuqsoni borligini bilgan paytimiz logopedga murojat qilishimiz kerak. Oila davrasida ham bolalar bilan ko'proq gaplashish, ular nutqiga e'tiborli bo'lish, muloqot davomida so'zlarni to'g'ri va tiniq talaffuz qilishni o'rgatishimiz lozim. Eng avvalo oilada sog'lom muhitni shakllantirsak bolalarda hechqanday nuqsonlar paydo bo'lmaydi. Ular kelajakda jismonan va aqliy tomonlama sog'lom bo'lib voyaga yetadi va jamiyatda o'z o'rinalariga ega bo'lishadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. V.Pravdina "Logopediya" M., " Prosvesheniya" , 1973
2. G.Q.Sodiqova, A.G'. Ahmedov, G.M. Tursunxo'jayeva "Bolalar nevrologiyasi" Toshkent "Iqtisod-moliya", 2010
3. M.R.Po'latxo'jaeva "Defektologiyaning klinik asoslari" Toshkent -2013